



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI

# DIAGNOSTIKA VA DIAGNOSTIKA METODLARI

**Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti psixologiya o'qituvchisi

# Reja:

Diagnostika  
va uning  
turlari



Psixologik  
diagnostikad  
a amaliy  
uslublardan  
foydalanish  
va ularni  
qo'llash



Diagnostika  
metodlari  
va ularni  
tanlash  
strategiyasi



Diagnostika  
uchun  
metodlar  
jamlanmasi

# 1. Diagnostika va uning turlari

**Diagnostika** — bu obyekt, jarayon yoki hodisaning holatini aniqlash, tahlil qilish va baholash jarayonidir. Psixologiyada diagnostika shaxsning psixologik holatini, xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini aniqlash uchun qoʻllaniladi. Bu jarayon psixologga shaxsning ichki holatini yaxshiroq tushunish, uning muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yoʻllarini topishda yordam beradi.

# Diagnostikaning asosiy turlari quyidagilar:

## 1. Noma'lum (skrining) diagnostika:

Skrining — bu tez va samarali baholash usuli. Uning maqsadi — muammoni aniqlash va keyingi tekshiruvlarga yo'naltirish. Maktabda bolalarning stress darajasini aniqlash uchun anonim anketa o'tkazish mumkin. Bu usul orqali stressga duch kelayotgan bolani aniqlab, ularga yordam ko'rsatishni rejalashtiradi.



## 2. Differensial diagnostika:

Differensial diagnostika shaxsning psixologik xususiyatlarini yoki kasalliklarni ajratishga qaratilgan. Masalan, disleksiya kabi muammolarni boshqa o'qish muammolaridan farqlash uchun turli usullar va testlar orqali aniq diagnoz qo'yiladi.



## Psixologik diagnostikaning asosiy prinsiplari:

- ❖ Ilmiylik – metodlar ilmiy asoslarga ega bo'lishi lozim.
- ❖ Ob'ektivlik – ma'lumotlar va xulosalar shaxsiy fikrlarga emas, faktlarga asoslanadi.
- ❖ Individuallik – har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.
- ❖ Maxfiylik – diagnostika natijalari shaxsiy sir sifatida saqlanishi kerak.
- ❖ Etika – diagnostik jarayon inson manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

## PSIXODIAGNOSTIKA JARAYONI

### Maxfiylik

Diagnostika jarayonida yig'ilgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga oshkor qilish qat'iyan man etiladi, agar bu shaxsning o'z roziligi bilan bo'lmasa. Maxfiylik, ayniqsa, tibbiyot, ta'lim yoki oilaviy masalalarda muhim.



### Shaxs manfaatlarini himoya qilish

Psixologik diagnostika jarayonida shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga zarar yetkazilmasligi kerak.

Diagnostika natijalari shaxsni kamsitishga yoki uning ijtimoiy obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.



## **Rozilik va ixtiyoriylik**

Diagnostika jarayonida qatnashish shaxsning ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Diagnostika boshida psixolog shaxsga (yoki uning vakiliga) jarayonning maqsadi, usullari va natijalari haqida to'liq ma'lumot beradi. Hech kim majburiy diagnostika jarayonida ishtirok etishi mumkin emas.

## **Ob'ektivlik va adolatlilik**

Diagnostika jarayonida psixolog shaxsiy fikr va hissiyotlardan xoli bo'lishi kerak. Xulosalar ilmiy dalillarga va diagnostika natijalariga asoslanadi, shaxsning jinsi, millati, diniy e'tiqodi yoki ijtimoiy mavqeiga ta'sir qilmaydi.



# Diagnostikaning sohalari va qo'llanilishi

## Psixologik diagnostika:

Shaxsning psixologik holatini, ruhiy salomatligini, qobiliyatlarini va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.



## Pedagogik diagnostika:

O'quvchilarning o'qish jarayonidagi muammolarini aniqlash, ularga mos ta'lim usullarini belgilash uchun qo'llaniladi.



## Klinik psixologik diagnostika:

Ruhiy kasalliklar va buzilishlarni aniqlash, ularning darajasi va xususiyatlarini baholash uchun tibbiy muassasalarda qo'llaniladi.



# Kadrlar diagnostikasi:

Korxonada va tashkilotlarda xodimlarning kasbiy qobiliyatlari, motivatsiyasi va ishga mosligini baholash uchun qo'llaniladi. Diagnostika jarayonida turli usullar va vositalardan foydalaniladi, ularning har biri ma'lum vazifani bajaradi.



## **Standartlashtirilgan testlar:**

Bu testlar oldindan aniqlangan qoidalar va normalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, natijalar obyektiv va taqqoslanadigan bo'ladi. Masalan, intellekt testlari, shaxsiyat testlari.



## **Proyektiv texnikalar:**

Bu usullar shaxsning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va ichki muammolarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Masalan, Rorshax testi, Tematik appersepsiya testi. Ular shaxsning shug'ullanmagan, yashirin tomonlarini ko'rsatishi mumkin.

## **Suhbat (intervyu):**

Psixolog va shaxs o'rtasidagi muloqot. Suhbat turlicha bo'lishi mumkin — strukturalangan, yarim strukturalangan yoki erkin. Suhbat orqali shaxsning fikrlari, his-tuyg'ulari va muammolari aniqlanadi.

## **Kuzatish:**

Psixolog shaxsning xulq-atvorini tabiiy yoki maxsus tashkil etilgan sharoitda kuzatadi. Bu usul orqali shaxsning tashqi harakatlari va munosabatlari haqida ma'lumot olinadi.

## **Anketa va savolnomalar:**

Keng qamrovli ma'lumot to'plash uchun qo'llaniladi. Ular orqali shaxsning fikrlari, munosabatlari, ehtiyojlari haqida ma'lumot olish mumkin.



**Diagnostika** — psixologik faoliyatning asosiy qismi bo'lib, u orqali psixolog shaxsni chuqurroq tushunib, muammolarini aniqlaydi va samarali yordam ko'rsatadi. Diagnostikaning turlari va usullarini to'g'ri tanlash va qo'llash psixologning kasbiy mahoratini ko'rsatadi. Shuning uchun har bir psixolog diagnostika jarayonida ishonchli, haqiqiy va etik me'yorlarga rioya qilishi zarur.





## 2. Psixologik diagnostikada amaliy uslublardan foydalanish va ularni qo'llash

Psixologik diagnostika faqat nazariya emas, balki amaliy jarayondir. Undagi har bir uslubni to'g'ri tanlash, o'rganish va qo'llash diagnostikaning samaradorligini belgilaydi. O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, hissiy holatlari, intellektual darajasi, motivatsiyasi, qiziqishlari o'rganiladi.

**Asosiy usullar:** testlar, so'rovnomalar, proyektiv metodlar, suhbat, kuzatish.

# 1. Psixologik diagnostika metodlarining asosiy turlari:


## 1. Observatsiya (Kuzatish metodlari)

Bolaning psixologik holatini, uning ijtimoiy faoliyatini, o'yinlardagi xatti-harakatlarini va boshqa faoliyatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bu metod bolaning tabiiy muhitida uning turmush tarzini va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tushunishga yordam beradi.



## 2. Testlar va anketa so'rovnomalari

Psixologik testlar bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishini o'lchash uchun ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus testlar e'tibor, xotira, mantiqiy fikrlashni o'lchaydi. Suhbat metodi tadqiqotchi va bolaning muloqoti orqali axborot yig'ishga qaratilgan. Anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin. Anketalar ot-onalar va pedagoglarga bolalarning o'zini tutishi va ijtimoiy qobiliyatlari haqida ma'lumot beradi.



### 3. Intervyu

Psixolog va bola, shuningdek, uning ota-onalari bilan o'tkaziladigan suhbatlar orqali bolaning his-tuyg'ulari, qo'rquvlari, xavotirlari, ijtimoiy munosabatlari va boshqa psixologik jihatlarini aniqlash mumkin.



### 4. Proyektiv metodlar

Bu metodlar bolalarning ichki dunyosini, xayoliy va ijtimoiy jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Bolalarga tasvirlar yoki maxsus hikoyalar ko'rsatiladi, ular haqida qanday tasavvurlar bildirishlari so'raladi. Bu metodlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, qo'rquvlarini va istaklarini ochib beradi.



## 5. Loyihalash metodlari

Bu metodda bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va dunyoqarashlarini aks ettirish uchun turli faoliyatlarga (rasm chizish, o'yinlar) jalb qilinadi. Bolalar o'zlarini qanday his qilayotganini va qanday psixologik xususiyatlarga ega ekanligini loyihalar orqali ifodalaydi.



## 6. Biometrik va fiziologik o'lchovlar

Ba'zi hollarda bolalarning psixologik holatini baholashda biometrik usullar (masalan, yurak urish tezligini o'lchash, terlash va boshqa fiziologik reaksiyalarni kuzatish) qo'llanilishi mumkin. Bu metodlar, ayniqsa, bolada psixologik stress yoki xavotirni aniqlashda foydali bo'ladi.



## 7. O‘yin terapiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin terapevtik vosita sifatida ishlatiladi. O‘yin orqali bolalar o‘z hissiyotlarini, qo‘rquvlarini, shuningdek, o‘zgarishlarga bo‘lgan reaksiyalarini namoyon qiladilar. Psixolog o‘yin faoliyatini kuzatib, boladagi psixologik holatni aniqlaydi va unga mos yondashuvni ishlab chiqadi.



## 8. Metodlar yordamida kuzatish va tahlil qilish

Psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik diagnostikasi jarayonida turli metodlarni birgalikda qo‘llaydi. Bu metodlar bolalarning individual ehtiyojlariga qarab tahlil qilinadi, va diagnostik ma‘lumotlar asosida ularga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.



## 2. Psixologik diagnostikada amaliy uslublardan foydalanish va ularni qo'llash tartibi

### 1. Testlar:

Testdan oldin uning ishonchliligi va haqiqiyliги haqida ma'lumot olish kerak. Test shartnomasi va yo'riqnomaga rioya qilish muhim.

Misol: Fillipsni maktabdagi stressni aniqlash testi 58 ta savol orqali stress darajasi va uning manbalarini aniqlaydi.



### 2. Suhbat:

Suhbat strukturalangan, yarim strukturalangan yoki strukturalanmagan bo'lishi mumkin. Psixolog ijobiy muhit yaratib, suhbatdoshni so'zlatishga harakat qilishi kerak.

Misol: Ota-ona bilan bolaning ijtimoiylashuvi haqida suhbatda psixolog savollar beradi, masalan: "Bolaning o'yinlari qanday?", "U his-tuyg'ularini qanday ifodalaydi?"



### 3. Kuzatish:

Kuzatish tabiiy yoki eksperiment sharoitida olib borilishi mumkin. Kuzatuchi obyektiv bo'lishi, faqat faktlarni qayd etishi kerak. Kuzatish parametrlari oldindan belgilanishi lozim.

Misol: Sinfda bolaning guruhdagi o'rnini aniqlash uchun uni o'yinda kuzatish va qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganish.



### 4. Proyektiv usullar:

Bu usullar tahlil qilishda malaka talab etadi. Psixolog shaxsning javobiga o'z tafsivini bermasdan, psixoanaliz yoki geshtalt-terapiya kabi nazariyalar asosida ishlashi kerak.

Misol: "Daraxt chizish" testi orqali bolaning ijtimoiy tayanchi, psixologik holatlari va maqsadlarning noma'lumligi aniqlanishi mumkin.



## **Amaliy uslublarni qo'llashda e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlar:**

- **Ishonchlilik:** Uslub ishonchli (doim bir xil natija beradi) va haqiqiy (o'lchayotgan narsani aks ettiradi) bo'lishi kerak.
- **Etika:** Diagnostika sir saqlash asosida olib borilishi, natijalar faqat maqsad uchun ishlatilishi lozim.
- **Shaxsni hurmat qilish:** Test natijalari hech qachon shaxsni kimdir bilan solishtirish yoki uni haqoratlash uchun ishlatilmasligi kerak.
- **Natijalarni to'g'ri talqin etish:** Har qanday natijani shaxsning turmush tarixi, ma'ruzachilik sharoiti va boshqa omillarni hisobga olgan holda umumiy tahlil qilish zarur.

# Psixodiagnostika metodlarini tanlash strategiyalari

## 1. Tadqiqot maqsadiga moslik:

- Nima aniqlanmoqda? (shaxs, emotsiya, intellekt, motivatsiya)

## 2. Yosh va rivojlanish darajasi:

Bolalar uchun — o‘yin va rasm testlari

Kattalar uchun — test va intervyular

## 3. Validlik va ishonchlilik:

Metod haqiqiy o‘lchashi va barqaror natija berishi shart

## 4. Etik tamoyillar:

Rozilik, maxfiylik, zarar yetkazmaslik

## 5. Kompleks yondashuv

Birgina metod emas, bir nechta metodni uyg‘un qo‘llash eng to‘g‘ri natija beradi.



# Diagnostik usullarning o'tkazilish tartibi

## 1. O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va o'z-o'zini baholash

### Qo'llaniladigan usullar:

- Dembo–Rubinshteyn o'z-o'zini baholash metodikasi
- “Men-konsepsiya” tahlili
- Rokeach qadriyatlari testi
- “Shaxs motivatsion profili” testlari

### O'tkazilish tartibi:

- Psixolog o'quvchilarga metodika va testlarni tushuntirib beradi. Dembo-Rubinshteyn metodikasida o'quvchi o'zining haqiqiy “Men” va ideal “Men” tasvirlarini grafik shaklda belgilaydi.
- Rokeach qadriyatlari va motivatsion profil testlari orqali o'quvchilarning qadriyatlari va motivatsiyalari aniqlanadi.
- Har bir natija tahlil qilinadi, o'z-o'zini baholashdagi kamchiliklar va kuchli tomonlar belgilab chiqiladi.
- Natijalar asosida individual yoki guruhga mo'ljallangan psixologik yordam rejasi ishlab chiqiladi.

## 2. Ijtimoiy munosabatlar va guruhij jipslikni o'rganish

### Qo'llaniladigan usul:

- Sotsiometriya (J. Moreno)

### O'tkazilish tartibi:

- Psixolog sinfdagi bolalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar haqida ma'lumot to'plash uchun maxsus sotsiometriya savolnomasini tayyorlaydi.
- Bolalardan kim bilan yaqin, kim bilan ko'proq vaqt o'tkazishini so'raydi.
- Olingan ma'lumotlar asosida sinf ichidagi ijtimoiy aloqalar xaritasi tuziladi.
- Xarita orqali liderlar, izolyatsiyadagi bolalar va guruhlar aniqlanadi.
- Bu natijalar asosida sinfdagi ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun choralar belgilanadi.



### 3. Ijodiy va proyektiv metodlar orqali ichki dunyoni o'rganish

#### Qo'llaniladigan usullar:

- “Uy–daraxt–inson” (UDI) testi
- “Tugallanmagan gaplar” testi

#### O'tkazilish tartibi:

- Psixolog bolalarga testlarni tushuntirib beradi va ularni erkin va xotirjam holda bajarishini ta'minlaydi.
- UDI testida o'quvchi uy, daraxt va inson rasmlarini chizadi, bu orqali ichki holatlari va his-tuyg'ulari aniqlanadi.
- “Tugallanmagan gaplar” testida o'quvchi yaroqli so'zlar bilan jumla tugatadi, bu uning ichki muammolari va fikrlarini ochib beradi.
- Proyektiv test natijalari psixolog tomonidan tahlil qilinadi va individual psixologik holat haqida xulosa chiqariladi.

## 4. Hissiy holat va tashvish darajasini aniqlash

### Qo'llaniladigan usullar:

- Spilberger – Xanin tashvish shkalasi
- Bek depressiya shkalasi (bolalar uchun versiyasi ham mavjud)

### O'tkazilish tartibi:

- Psixolog bolalarga testlarni tushuntirib, ularning hozirgi (reaktiv) va umumiy (shaxsiy) tashvish darajasini o'lchaydi.
- Spilberger – Xanin shkalasi orqali bolaning stressga bo'lgan reaksiyasi va umumiy tashvish darajasi aniqlanadi.
- Bek shkalasi boladagi depressiv holatni baholash uchun qo'llaniladi.

Test natijalariga ko'ra, psixolog zarur psixologik yordam yoki davolashga yo'naltirish rejasini ishlab chiqadi.

## 5. Test va so'rovnomalar natijalarini tahlil qilish va xulosa chiqarish

- Har bir usuldan olingan natijalar jamlanadi va tahlil qilinadi.
- Natijalar o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari va motivatsiyasi haqida kengroq tasavvur beradi.
- Psixolog individual yoki guruhga mo'ljallangan psixologik yordam dasturini tayyorlaydi.
- Ota-onalar va o'qituvchilar bilan muloqot o'rnatib, zarur tavsiyalar beriladi.

### Qo'shimcha tavsiyalar:

- Diagnostik jarayonda bolalarning roziligi va psixologik etika qoidalariga rioya qilish muhim.
- Har bir usulni o'tkazishda bolalarning yoshi va psixologik holatiga moslashtirish kerak.
- Natijalarni faqat professional psixologlar tahlil qilishi va ularga asoslangan qarorlar qabul qilinishi lozim.
- Diagnostika natijalarini o'quvchilarning shaxsiy sirlari sifatida saqlash zarur.

# I. KOGNITIV RIVOJLANISH DIAGNOSTIKASI METODIKALARI

## 1. Diqqat diagnostikasi — Bourdon–Anfimov testi

### Maqsad:

Diqqatning barqarorligi, konsentratsiyasi va tezligini aniqlash.

**Yosh guruhi:** 7–17 yosh

**Material:** Harflar yoki belgilar jadvali.

### Topshiriq:

O'quvchi berilgan jadvaldan faqat ma'lum harflarni belgilaydi.

O'tkazish vaqti: 5–10 daqiqa

### Interpretatsiya:

Yuqori daraja — diqqat barqaror

O'rtacha daraja — diqqat yetar

Past daraja — diqqatning sust

### Baholash mezonlari:

To'g'ri belgilangan belgilar soni (T)

Xatolar soni

Ish tezligi (V)      Formula:  $V = T - X$

### Psixologik xulosa:

Diqqatning individual darajasi, o'qish faoliyatiga ta'siri aniqlanadi.



## 2. Xotira diagnostikasi — “10 ta so‘z” metodi (A.R. Luriya)

### Maqsad:

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani aniqlash.

**Yosh guruhi:** 6–16 yosh

### Topshiriq:

Psixolog 10 ta so‘zni o‘qiydi, o‘quvchi eslab qaytaradi.

### Bosqichlar:

1-marta eshitish

5-marta takrorlash

20 daqiqadan keyin qayta aytish.

### Baholash:

1-urinish: 3–5 so‘z — norma


5-urinish: 8–10 so‘z — norma

Kechiktirilgan eslash: 6–8 so‘z norma

### Interpretatsiya:

Past natija — xotira sustligi

Yuqori natija — xotira rivojlangan



### 3. Tafakkur diagnostikasi — Piktogramma metodi

#### Maqsad:

Abstrakt tafakkur darajasini aniqlash.

#### Topshiriq:

Berilgan soʻzlarga rasm orqali maʼno berish.

#### Baholash:

Simvolik tasvir — yuqori daraja

Konkret tasvir — oʻrtacha daraja

Notoʻgʻri tasvir — past daraja



## II. EMOTIONAL STATUS DIAGNOSTIC METHODS

### 4. School Anxiety Test — Phillips

Purpose:

To determine the level of school anxiety in students.

**Age group:**

8–16 years

**Number of questions:** 58

**Scale directions:**

General anxiety

Relationship with the teacher

Relationship with classmates

Attitude towards evaluation

Attitude towards failure

**Psychological conclusion:**

The level of school adaptation is determined.



**Scoring:**

0–20 % low anxiety

20–50% average

50%↑ — high anxiety

## 5. Tashvish diagnostikasi — Spielberger–Xanin testi

### Maqsad:

Shaxsiy va situatsion tashvishni aniqlash.

### Savollar soni:

40 ta (20+20)

### Baholash:

20–30 ball — past

31–45 ball — o'rtacha

46↑ ball — yuqori



## 6. Stress, depressiya, tashvish — DASS-21

### Maqsad:

Psixoemotsional holatni umumiy baholash.

### Shkala:

Depressiya

Tashvish

Stress

### Interpretatsiya:

- Norma
- Yengil
- O'rtacha
- Og'ir
- Juda og'ir



### III. SHAXS DIAGNOSTIKASI METODIKALARI

#### 7. Temperament diagnostikasi — Eysenck testi (EPQ)

**Maqsad:**

Temperament tipini aniqlash

**Shkala:**

Ekstraversiya / introversiya  
Nevrotizm  
Psixotizm

**Natija:**

4 tip:

Sangvinik

Xolerik

Flegmatik

Melanxolik



**Sangvinik**



**Xolerik**



**Flegmatik**



**Melanxolik**

## 8. Xarakter aksentuatsiyasi — Shmishek–Leonhard

### Maqsad:


Xarakter tiplarini aniqlash.

### Asosiy tiplar:

- Gipertimik
- Emotiv
- Demonstrativ
- Pedantik
- Tashvishli
- Ekzaltatsiyalangan
- Sikloid
- Distimik

### Interpretatsiya:

Aksentuatsiya — xarakter xususiyatlarining kuchaygan shakli.



## IV. XULQ-ATVOR DIAGNOSTIKASI METODIKALARI

### 9. Agressiya diagnostikasi — Buss–Durkee

#### Maqsad:

Agressivlik darajasini aniqlash.

#### Turlari:

- Jismoniy agressiya
- Og‘zaki agressiya
- G‘azab
- Dushmanlik

#### Interpretatsiya:

- Past agressiya
- O‘rtacha agressiya
- Yuqori agressiya



## 10. Ijtimoiy munosabatlar — Moreno sotsiometriyasi

### Maqsad:

Sinf ichidagi ijtimoiy maqomni aniqlash.

### Natija:


Lider

Qabul qilingan

E'tiborsiz

Rad etilgan

Izolyatsiyalangan



## V. PROEKTIV METODLAR (BOLALAR UCHUN)

### 11. “Oila rasmi” testi

#### Tahlil mezonlari:

- Kim birinchi chizilgan
- Hajm
- Masofa
- Emotsional ifoda



## 12. “Uy-Daraxt-Inson” testi (UDI)

**Diagnostik indikatorlar:**

Uy — xavfsizlik

Daraxt — hayotiy kuch

Inson — shaxsiy “Men”



# MAKTAB PSIXOLOGI UCHUN KOMPLEKS DIAGNOSTIKA MODELI

## 1-bosqich:

Muammo aniqlash

## 2-bosqich:

Metodika tanlash

## 3-bosqich:

Diagnostika o'tkazish

## 4-bosqich:

Natijalarni tahlil qilish

## 5-bosqich:

Psixologik xulosa

## 6-bosqich:

Korreksiya va tavsiyalar





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**Ishtirokingiz uchun rahmat!**